

QADIMIGI TURKIY TILDA MURAKKAB SIFATLAR LINGVOPHQETIKASI

Xadjieva Nigora Anvarovna, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

LINGUOPHETICS OF COMPOUND ADJECTIVES IN OLD TURKISH

Khadjieva Nigora Anvarovna Tashkent State University of Oriental Studies, teacher

ЛИНГВОПОЭТИКА СЛОЖНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ДРЕВНЕТЮРКСКОМ ЯЗЫКЕ

Хаджиеева Нигора Анваровна, преподаватель Ташкентского государственного университета востоковедения



[https://orcid.org/
0000-0003-4794-2639](https://orcid.org/0000-0003-4794-2639)

*e-mail:
ninishka12@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi turkiy tilda murakkab sifatlar lingvopoetikasi haqida so‘z boradi. Qadimgi turkiy tilda murakkab sifatlarning affiksatsiya, kompozitsiya usullari bilan yasalishi, sifat yasovchi qo‘shimchalar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: sifat, tub, murakkab, yasama, affiksatsiya, kompozitsiya.

Annotation: This article examines the linguopoetics of complex adjectives in the ancient Turkic language. The formation of complex adjectives in the Old Turkic language through affixation, addition, and educational adjectives is given.

Keywords: quality, root, complex, composition, affixation, composition.

Аннотация: В данной статье рассматривается лингвопоэтика сложных прилагательных в древнетюркском языке. Приведено образование сложных прилагательных в старотюркском языке средствами аффиксации, сложения и прилагательных дополнений.

Ключевые слова: качество, базовое, сложное, искусственное, аффиксация, композиция.

KIRISH. O‘zbek tili morfoloyiyasida sifatlar boshqa so‘z turkumlari qatori muhim o‘rinni egallaydi. Sifatlarning ma’no xususiyatini o‘rganganda, uning bir necha turlari mavjud ekanligi aniqlangan. O‘zbek tilshunoslari sifatlarning ma’no turlari borasida turlicha talqin, fikr bildirishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Sifatlar jonzot va narsa-hodisalarning belgisini ifodalaydigan so‘z turkumidir. Sifatlar semantik ma’nosini jihatidan asosan 9 turga ajraladi.

Sifatlar morfologik (affikslar vositasida) yasalishdan tashqari yana stilistik (so‘zlarning birikuvi) va sintaktik-morfologik (ya’ni, so‘zlarning birikuvi + affikslar) usuli bilan yasaladi. Sintaktik va sintaktik-morfologik usulda yasalgan sifatlar guruhiiga:

- a) qo‘shma sifatlar;
- b) birikmali va tizma sifatlar;
- v) juft sifatlar kiradi.

Qo‘shma sifatlar. Birdan ortiq o‘zak-negizdan tashkil topgan qo‘shma sifatlar bir bosh urg‘u bilan aytilib, bir belgi-xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi, masalan: *orombaxsh*.

Qo‘shma sifatlar komponentlarining qaysi so‘z turkumidan bo‘lishi va ularning sintaktik jihatini ko‘zda tutib, ularni morfologik va sintaktik tomonidan guruhlarga ajratib analiz qilish mumkin.

Bir belgi ma’nosini ifodalash uchun sodda, qo‘shma, juft va birikmali sifatlardan tashqari tizma sifatlar. Ya’ni, turli leksik-frazeologik birikmalar, yoyiq izohlovchilar qo‘llanishi ham mumkin.

MUHOKAMA. *Ol antaǵ osuǵluǵ čoǵluǵ yalıňlıǵ küclüǵ kiusünlüǵ elig xanniý uluǵı xatunınta toǵmıš körgäli sewiglig, körklüǵ menjızlıǵ üc oǵlanıń erti. Aŋ ilki uluǵı oǵlanıńı atı Maxabali erti.*

Mazmuni:

“O’sha tadbırılı-chog’lı, shon-shavkatlı elig xonning katta xotinidan tug‘ılgan ko‘rkli-suyuklı, istarasi issıq uch o‘g‘loni bo‘lar edi”.

Ushbu misolda qo‘llangan qo‘shma sifatlar xonning xarakter-xususiyatini izohlash uchun xizmat qilgan. Bu o‘z o‘rnida jumлага o‘zarо ohangdorlikni va qofiyalanish holatini keltirib chiqargan.

Men ilkisizdin beri bu yidiǵ sarsıǵ qanlıǵ yiriňlıǵ sewgüsüz taplaǵusuz yarsınčıǵ et-özka inčip inandım.

Mazmuni:

“Men almisoqdan beri bu chirik, sassıq qonlı, yiringli, mehrsiz, mardud, jirkanch jasadga shunchalik inondım”.

Ushbu misolda *sarsıǵ qanlıǵ* qo‘llangan qo‘shma sifatlar muallif fikrini yaqqol, real tasavvur qilish uchun qo‘llanilgan. Qo‘llangan sifatlar obrazlilik, ta’sirchanlik hamda ta’kidni kuchaytirish uchun vosita sifatida xizmat qilgan.

Kultigin bitigida qutsidagi matn keltiriladi:

Ädgü bilgä kisig, ädgü alp kisig yoritmas ärmis. Bir kisi yanılsar, oğusi? Biduni, äbi äsükijä tägi qidmas ärmiš. Süčig sabiňja, yümsäq ağısıňja arturup öküş türük bodun ölüg. Türük bodun üläsikij, biryä Čuǵay yiš Tög ältün yazı qonayıń tisär, tutuk bodun üläsikig anta aňıǵ kisi anča boşgurur ärmis.

Mazmuni:

“Yaxshi, dono kishini, yaxshi, bahodir kishini tini qo‘ymas ekan. Biror kishi adashsa, urug‘i, xalqi, uyi-yopinchig ‘igacha qo‘ymas ekan. Shirin so‘ziga, nafis shoyisiga aldanib, ko‘k turk xalqi, o‘lding. Turk xalqi, Chug‘ay yish, To‘g altun dashtiga manzil qilay desa, turk xalqining ayrimini u yerda yovuz kishi shunday pishiqlar ekan”.

Ol yämä Maxaradi elig xan ertıňü uluǵ bay barımlıǵ, tsayları aǵılıqları tarıǵ, ed tawar özä tolı, alp atım, sülüǵ küčijä tükällig, törttin sijar yer orunuǵ iymış basmıš, başladaçı, imärigmä qamaǵ bodunıń qarasın ašmıš ükilitmiş, qoptın sijar yağısız yawlaqsız erti.

Мазмунни:

“Үша Maxaradi элихон беҳад улуғ, бойбадавлат, омбору хазиналари дон-дун, молмулкка тўла, алту мерган, кучли черикка эга, тўрт томондаги ерни ўзига бўйсундирган, кўпнинг ҳурматини қозонган, азалдан адолатли сиёсат юритган, бўйсунган барча элларнинг халқини кўпайтирган, ён-вери бутунлай ёвсиз-ёвузсиз эди”.

Ушбу матнда кўришимиз мумкинки, сифатлар синонимиасидан анчагина кенг қўлланилган. Ушбу матн таркибида *bay barımlıǵ* qo‘shma sifati ham mavjud. Poetik nutqda ushbu qo‘llangan sifatlar sinonimiyasi matndagi ahamiyati shundan iborakti, ular uslubiy bo‘yoqdorltik va emotsiyonallikni oshirishga ortiq darajada xizmat qilgan. Ushbu paragraf yuzasidan olib borilgan tadqiqotimiz natijasida qo‘shma, juft sifatlar salmog‘i kamligi aniqlandi. Ularga nisabatan yasama sifatlar ko‘لامи anchagina ko‘p.

Ädgü bilgä kisig, ädgü alp kisig yoritmas ärmis. Bir kisi yanılsar, oğusi? Biduni, äbi äsükijä tägi qidmas ärmiš. Süčig sabiňja, yümsäq ağısıňja arturup öküş türük bodun ölüg. Türük bodun üläsikij, biryä Čuǵay yiš Tög ältün yazı qonayıń tisär, tutuk bodun üläsikig anta aňıǵ kisi anča boşgurur ärmis.

Mazmuni:

“Yaxshi, dono kishini, yaxshi, bahodir kishini tini qo‘ymas ekan. Biror kishi adashsa, urug‘i, xalqi, uyi-yopinchig ‘igacha qo‘ymas ekan. Shirin so‘ziga, nafis shoyisiga aldanib, ko‘k turk xalqi, o‘lding. Turk xalqi, Chug‘ay yish, To‘g altun dashtiga manzil qilay desa, turk xalqining ayrimini u yerda yovuz kishi shunday pishiqlar ekan”.

Ushbu misolda insonning xarakter xususiyatini tasvirlashda bir qancha sifatlar ketma-ketligi qo‘llanilgan. Kisig so‘ziga ädgü, bilgä, alp sifat leksemalari badiiy tasvirni yanada kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, Ädgü bilgä kisig, ädgü alp kisig yoritmas ärmis gapidagi sifatlar tizimi ohangdorlikka o‘zgacha bo‘yoqdorlik bera olgan.

Biligsiz qaǵan olurmıs ärinč, yablaq qaǵan olurmıs ärinč, buyurqı yämä biligsiz ärinč, yablaq ärmis ärinč.

Mazmuni:

“(Taxtda) johil xoqon turganligi uchun, badfe’l xoqon turganligi uchun vaziri ham kaltafahm ekan, yovuz ekan”.

Bu misolda ham sifatlar ketma-ketligi uchraydi. Xoqon hamda vazirning xarakterini tasvirlashda *biligsiz* “жоҳил”, *yablaq* “бадфеъл” sifatlar tizimidan mahorat bilan foydalanilgan. Sababi, bu yerda faqatgina xarakter xususiyatini kuchliroq ta’kidlashdan tashqari, sa’j san’atini ham keltirib chiqaradi.

Bu o‘rinda, inson harakati, fe’l-atvorining muhim sifat ko‘rsatkichlari va ularning faoliyatiga ta’siri qanday bo‘lishi yorqin ifodalab berilgan. Masalan, ayniqsa davlat boshlig‘ining badfe’l, johil bo‘lishi uning zimmasidagi juda katta mas’uliyatli vazifaning sifatsiz bajarishiga zamin bo‘ladi. Undagi salbiy xislatlar atrofidagilarga ham albatta ta’sir o‘tkazadi. Yoki bo‘lmasam, bunday odamlar o‘z atrofiga o‘ziga mos yomon xulq-atvorli odamlarni to‘playdi. Bundan odamlar bilan boshqariladigan mamlakat tanazzulga uchraydi.

NATIJALAR. Sifatlar tilda bir qancha uslubiy vazifalarni bajarishda juda keng imkoniyatlarga ega. Sifat so‘z turkumi fikrni aniq, obrazli ifodalashga, poetik ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Natijada, bir qator badiiy vositalar aynan sifat yordamida hosil qilinadi. Masalan, epitet, tashbeh, takrir, tazod, tanosiq-us-sifat kabi badiiy san’atlar qadimgi turkiy bitiglarda uchraydi. Ularning orasida epitet, tazod va tanosiq-us-sifat badiiy san’atlarini ko‘proq uchratishimiz mumkin.

Bitiglardagi sifatlar ishtirok etgan leksik vositalarning lingopoetik jihatlari zid ma’noli tasvir maqsadi va ruhiga mos keladigan aniq so‘zni tanlab qo’llash bilan xarakterlanadi. Natijada mazmunning eng nozik nuqtalari, tasvir obyekti va qahramon

ruhiyatining eng kichik qirralarigacha aniq ko‘rsata olishga erishadi.

XULOSA. Hozirgi paytda badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki jahon tilshunoslikgining ham dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Lingvopoetika nafaqat lirik, balki nasriy asarlar tiliga oid poetik ifoda imkoniyatlarining ham lisoniy vositalar orqali namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Xusan, epik asarlar tili lipovopoetik tushunchasi bilan izohlanadi. Badiiy asar tili bilan bog‘liq xususiyatlarning ifodalanishi til sathi birliklari yordamida amalga oshiriladi. Qadimgi turkiy bitiglarda sifatlarning badiiy-pragmatik ma’no, lingvopoetik mohiyat kasb etib, kontekstning badiiy-estetik ta’sirini kuchaytirish imkonini beradi. Shuningdek, sifatlar yordamida hosil qilingan ichki ohangdorlik badiiy nutq yaxlitligida okkazional uslubiy vazifa bajarib, matnning hissiy ta’sirchanligini oshirishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami.
N.Erkaboyeva (255-bet) [1;1].
2. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.
G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov (118-bet) [2;1].
3. O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami. N. Erkaboyeva (258-bet) [1;2].
4. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.
G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov (121-bet) [2;2].
5. URL: <https://Wikipedia.uz>

